



AKADEMIK AHMADALI ASQAROVNING ILMIY MEROSI VA O`ZBEKISTONDA ARXEOLOGIK TADQIQOTLARNING TARAQQIYOTI

G`ulomova Zahro Davlatjon qiz.

Nizomiy nomidagi O`zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Tarix fakulteti 202 – guruh talabasi.

(+998947463353)

zahrogulomova40@gmail.com .

ANNOTATSIYA: Ushu maqolada buyuk akademik, arxeolog olim Ahmadali Asqarovning tug`ilishi, yoshlik yillari, oilasi haqida ko`p ma`lumotlar berilgan. O`qigan oliygohlari, ustozlari haqida, arxeologik tadqiqotlari, asos solgan madaniyatlari, Sopollitepa yodgorligi, u yerdan topilgan topilmalar haqida aniq faktlar keltirilgan. Bronza davrida olib borilgan ilmiy tadqiqotlari, yoqlagan doktorlik dissertatsiyalari haqida, davlatimiz tomonidan berilgan mukofatlar haqida yozilgan.

Tayanch so`zlar: Ahmadali Asqarov, Asqarali Qo`ziboyev, Hamdamova Fayziyoxon, Yahyo G`ulomov, Sopollitepa.

АННОТАЦИЯ: В этой статье представлен обширный материал о рождении, юности и семье великого академика и археолога Ахмадали Аскарова. Приводятся конкретные сведения об университетах, в которых он учился, его учителях, его археологических исследованиях, культурах, которые он основал, о памятнике Сополлитепа и найденных там находках. Также приводятся сведения о его научных исследованиях в эпоху бронзового века, докторских диссертациях и государственных наградах.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Ахмадали Аскаров, Аскаралли Козибойев, Хамдамова Файзийохон, Яхйю Гуломов, Сополлитепа.



ANNOTATION: This article provides a lot of information about Ahmadali Askarov his family, the culture of great academic, the family of youth, archezers, cero-monks of the families, the cultures of the basic. Scientific research during the bronza periods recorded on prizes given by our state, about doctoral dissertations that I support.

Keywords: Ahmadali Asqarov, Asqini Khanqiboyev, Hamdamova Fayziyo, Yahyo G`ulomov, Sopollitepa.

O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan fan arbobi, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan yoshlar murabbiysi, O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi, tarix fanlari doktori, professor Ahmadali Asqarov 1935-yil 25-sentabr sanasida buyuk Turkiston zaminida, Sirdaryoning o`ng irmog`i, Namangan viloyati Norin tumaniga qarashli Uchtepa qishlog`ida tug`ilgan. Ustoz bilan olib borilgan suhbatlardan birida o`zlarining 1934-yil 19-mart sanasida tong otar to`rtlardan oshgan vaqtda tug`ilganliklarini aytib o`tgan. “Men tug`ilgan paytda yomg`ir yog`gan”- deb aytadi. Tug`ilishlarini ham ilmiy tadqiqotlari orqali aniqlagan. Otasi Asqarali Qo`ziboyev va onasi Hamdamova Fayziyoxonlar oddiy dehqon oilasi bo`lishiga qaramay, 8 farzandni ziyoli qilib tarbiyaladi. Oiladagi ezgulikka tashnalik, mehnatga bo`lgan ishtiyoq ruhining ustuvorligi farzandlarning voyaga yetishida alohida rol o`ynagan. Ahmadali Asqarov Namangan viloyati Norin tumanidagi o`rta maktabni 1952-yil a`lo baholar bilan tamomlab, O`ra Osiya Davlat Universiteti (CAFYU)ga sharqshunos bo`lish orzusida kirish imtixonlarini topshiradi. Ammo yuqori ko`rsatgichlarga erishsada, tanlovdan o`ta olmaydi. O`sha imtixon baholari bilan Toshkent Davlat Yuridik institutiga o`qishga qabul qilinadi. Ota-onasi noroziligi tufayli bir chorak o`qib, ona qishlog`iga qaytib ketadi. Ahmadali Asqarov 1953-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutiga o`qishga kiradi. Shu institutning tarix-filalogiya fakulteti, tarix bo`limini 1957-yilda tamomlaydi. Shu yili O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix va Arxeologiya institutiga aspiranturaga qabul qilinadi. Aspiranturani Neva sohilidagi



Leningrad shahrida mashhur arxeolog Mixail Gryazov rahbarligida davom ettiradi. Ahmadali Asqarov O'zbekiston FA Tarix va Arxeologiya ilmiy-tadqiqot institutida kichik ilmiy xodim (1961-1963), so'ng katta ilmiy xodim (1963-1966), keyinroq arxeologiya yo'nalishi bo'yicha direktor o'rinbosari (1966-1970) lavozimlarida xizmat qilgan. 1970-1987-yillarda O'zbekiston FA Arxeologiya instituti direktori lavozimida faoliyat yuritgan. Talabalik yillarida o'zbek arxeologiyasining otasi, taniqli akademik Yahyo G'ulomovning ma'ruzalari Ahmadali Asqarovni keyingi hayot yo'lini belgilab berdi. Bu paytda Yahyo G'ulomov institutda O'zbekiston arxeologiyasidan dars bergan. Shundan keyin ustoz-shogirt munosabatlari boshlanib ketdi. Akademik Ahmadali Asqarov keyinchalik o'z hayotida iz qoldirgan uch ustozini xotirlab, shunday yozadi: "Men o'z kasbim bo'yicha fan sirlarini bilishda ustozlarim Y.G. G'ulomov va M. P. Gryazanovlardan saboq olgan bo'lsam, rahbarlik ish faoliyatim siralarini yana bir akademik-ustoz I. M. Mo'minovdan o'rgandim"¹.

Buyuk akademik arxeologiya fanida beshta madaniyatga asos soldi. Eng mashhurlari Zomonbobo, Jarqo'ton, Sopolli madaniyatlari, shu bilan birga Buxoro, Surxandaryo, Qarshi cho'lida, Toshkent, Farg'ona hududlarida arxeologik tadqiqotlar olib bordi. Ko'proq arxeologik tadqiqotlari O'zbekistonning janubida, jumladan Surxandaryo viloyatida bo'ladi. Ustoz bilan olib borilgan suhbatlardan birida Surxandaryo haqida shunday deydi: "Butun musulmon davlatlarining jannatiy shahri Makka bo'lsa, O'zbekistonning jannati Surxandaryo ". 1960-yillarning o'rtalarida Surxandaryo viloyatida joylashgan Sherobod cho'lining o'zlashtirilishi munosabati bilan qadimgi dehqonchilik madaniyatining noyob yodgorligi Sopollitepa topildi. "Sopollitepa Amudaryo yaqinida, Ko'hitang tog'i oralig'ida tarkib topgan Pashkurt mikrovohasidan Sherobod cho'lga olib chiquvchi daralardan biridan otilib chiqqan Qaynarbuloq suvi asosida tarkib topgan Ulanbuloqsoy kuyi

¹ Anorboyev A.A, Abdullayev B, Mansurov O', Esonov M. "O'zbekiston olimlari biografiyasiga doir materiallar", Toshkent-Samarqand-2005.



sohilida joylashgan. Ana shu soy suvlari ba`zasida mil.avv ikkinchi ming yillikning boshlarida Ulanbuloqsoy kuyi xavzasida qadimgi bobodehqonlarimizning qishlog`i qad ko`taradi. Ana shu qishloq xarobalari mahalliy aholi orasida Sopollitepa deb nom olgan”<sup>2</sup>. Bu yerda o`tzazilgan arxeologik qazishmalar yodgorlik noyob va uy-joy majmualarining me`moriy qurilishi hamda mudofaa inshootlarining makammaligi bilan ajralib turishi, ajdodlarimizning muhandislik ilmi yuqoriligini aniqlab berdi. Yodgorlikning katta qismi paxtakorlar tomonidan o`zlashtirilib, markaziy qal`a qismi saqlangan. “Qal`a atrofidagi maydonda sochilib yotgan sopol parchalari, tosh yorg`uchoqlar, urchuqtosh va hayvon suyaklari, turli xil mehnat qurollariga qaraganda Sopollitepaning umumiy maydoni 3-4 gektardan kam bo`lmagan”³. Sopollitepa kvadrat shakliga ega bo`lib, maydoni 82x82 m, atrofi uch qator mudofaa devori bilan o`ralgan, devorlar qalinligi 2 metr. Bu yerdan topilgan uy-joy komplekslari uchta xranologik qurilish bosqichidan iborat ekanligi aniqlangan. “Sopollitepa 8 ta bronza davri patriarxal urug`jamoalarining qishlog`i bo`lgan”<sup>4</sup>. Har bir patriarxal uy-joy komplekslari ko`p xonali uylardan (mo`rili o`choq,daxliz, sandalli yotoqxona, oilaviy altar, g`alla ombori, to`qimachilik dastgohiga mo`ljallangan keng va uzun xona) tashkil topgan bo`lib, bunday katta patriarxal urug`jamoalari Sopollitepa nmanalarini tashkil etgan. Qal`aning markaziy maydonida Sopollitepaning bosh altar o`chog`i-otashqadasi joylashganligi aniqlangan. Bu yerdan topilgan kul qatlami va tegishli arxeologik topilmalar bundan guvohlik bergan. Sopollitepada yashovchi aholi otashparast bo`lgan. Olov ularda asosiy sig`inish, topinish obyekti bo`lgan. Zardushtiylikda (uning ildizi otashparastlikda) olov qatorida, yer, ona zamin muqaddas bo`lgani bois, otashparast kohinlar murdasi dastlab xumlarga solib ko`milgan. Ularning farzandlari esa,

²Asqarov.A , “Qadimgi Turon eneolit, bronza va ilk temir davri sivilizatsiyalari tarixidan lavhalar”. O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” mashriyoti, Toshkent-2013.

³Asqarov.A Sopollitepa.

⁴ Asqarov A.” Qadimgi Turon eneolit,bronza va ilk temir davri sivilizatsiyalari tarixidan lavhalar”. O`zbekiston Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti,Toshkent-2013.



xumchalarga solib ko'milgan. Bu yerdagi qabrlar yodgorlik xududiy doirasida joylashganligi tufayli, o'zga etnos o'g'rilari tomonidan o'g'irlanmagan. Bu yerdan topilgan 138 ta qabr o'z holicha saqlangan. "Qabrda erkaklar o'ng tomoni bilan, ayollar esa chap tomoni bilan, ona qornida yotgan holatda, oyoq- qo'llari bukilgan, boshlari shimolga, shimoliy-g'arbga qaratilib ko'milgan. Qabrlardan topilgan ashyoviy dalillarning boyligi yoki kamligi, ularning hayotlik davridagi jamoada tutgan o'rnini va mavqeyidan kelib chiqqan".⁵ Sopollitepadan hatto 8 ta urug' jamoasini birlashtiruvchi bronzadan ishlangan vis (qishloq jamoasining) muhri topilgan. "Uning bir tomonida 4 xil ilon tasvirlansa, ikkinchi tomonida 4 ta yovvoyi yirtqich (to'ng'iz, yo'lbars, to'qay mushugi va tog' takasi) surati tushirilgan. Sopollitepa topilmalari orasida giltoshdan ishlangan tumor uchraydi. Uning yuz tomonida odam surati, orqa tomonida esa ikki urkachli baqtriana tuyasi aks tushirilgan. Bu tumorda Zardusht va u bilan bog'liq baqtriana tuyasining ramzi aks etganligi talqin qilinadi".⁶ Sopollitepada hayot 200 yil davom etdi. Qishloqda aholi ko'paydi, ekinzorlar kengaydi. Lekin, vaqt o'tishi bilan suv tanqisligi boshlandi, aholining ma'lum qismi yangi yerlar qidirib, hozirgi Sherobod daryosi quyi xavzalariga kelib o'rnamshdi. Bu joylarni Sherobod daryosining quyi oqimi- Bo'stonsoy suv resurslari orqali sug'orish mumkin bo'lgan. Hozirgi kunda mahalliy aholi bu joyni Jarqo'ton deb atashadi. Bu yodgorliklar bugungi kun arxeologiya fani uchun muhim topilmalar hisoblanadi.

Akademik Ahmadali Asqarov o'z hayotini O'rta Osiyoda saqlanib qolgan moddiy-madaniyat yodgorliklarini ochish va ularda arxeologik tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan O'zbekiston tarixini o'rganishga bag'ishladi. U juda ko'p ilmiy tadqiqotlar olib bordi. "Bronza davrida quyi Zarafshon madaniyati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, "Janubiy O'zbekiston bronza davrida (Qadimgi Sharq

⁵Asqarov.A "Qadimgi Turon eneolit, bronza va ilk temir davri sivilizatsiyalari tarixidan lavhalar".O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, Toshkent-2013.

⁶Asqarov.A O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. Toshkent-2015.148b



tamaddudining mahalliy o'chog'ining tashkil topishiga doir)"⁷ doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Bu dissertatsiya 1977-yilda Moskva shahrida bo'lib o'tgan. A.Asqarov 450dan ziyod ilmiy ishlar, ularning 50dan ortig'i chet tillarida, 16 ta monografiya, 1ta darslik, 8ta o'quv-metodik qo'llanma muallifi. 1984-1998-yillarda O'zR FA Prezidiumining ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi raisi, bir vaqtning o'zida 1991-1995-yillarda O'zR FA Tarix instituti direktori lavozimlarida ishlagan. O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotlari sovrindori. 1985-yilda "Abu Rayhon Beruniy" nomidagi davlat mukofoti, 1995-yilda "O'zbekiston Respublikasining fan arbobi" mukofotiga sazovor bo'lgan. Bundan tashqari "El yurt hurmati" ordeni, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyssi" faxriy unvoni bilan taqdirlangan. 2025-yilda Ahmadali Asqarov tavalludining 90 yilligi munosabati bilan "Buyuk xizmati uchun ordeni" bilan taqdirlandi.

Buyuk akademik, arxeolog olim, fidoyi ustoz, jonkuyar tarixchi Ahmadali Asqarov o'zidan tarix qoldira oldi. U amalga oshirgan arxeologik tadqiqotlar bugungi kun tarixchilari uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ustoz arxeologik tadqiqotlarni "Tilsiz xazina" deb nomlaydi. Arxeologiyani tushungan inson hozirgi zamon tarixini ham kelajakni ham ko'ra biladi. Ularning amalga oshirgan tadqiqotlari O'rta Osiyodagi qadimiy shaharlar, ibodatxonalar qanday holatda bo'lganligini o'rganish uchun yordam berdi. Ustoz qoldirgan ilmiy merosni yanada chuqurlashtirib o'rganish biz yosh tarixchilarning vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Anorboyev A.A, Abdullayev B, Mansurov O, Esonov M. "O'zbekiston olimlari biografiyasiga doir materiallar", Toshkent-Samarqand-2005.
- 2.Asqarov.A "Qadimgi Turon eneolit, bronza va ilk temir davri sivilizatsiyalari tarixidan lavhalar". O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti.
- 3.Asqarov. A, Sopollitepa.
- 4.Asqarov.A "O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi", Toshkent-2015,148b.
- 5.Murtazayeva.R.H . O'zbekiston tarixchilari birinchi jild. Toshkent-2012.

⁷Murtazayeva. R.H, O'zbekiston tarixchilari birinchi jild .Toshkent-2012.